

## TARJIMA ASARLARDA TURG‘UN SO‘Z BIRIKMALARINING QIYOSIY TAHLILI

**Yusupov Azat Ataxanovich**  
Qoraqalpoq davlat universiteti

**Avezbayeva Jamila Muxtarbayevna**  
Qoraqalpoq davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbekcha-qoraqalpoqcha tarjimalarda frazeologizmlarni muqobil variantlarini ifodalash masalalari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** frazeologizm, frazema, ibora, qiyosiy tahlil, muqobil variant, semantik umumiylik.

### ABSTRACT

The article deals with the use of alternative expressions of phraseological units in Uzbek-Karakalpak translation work.

**Keywords:** phraseological unit, phraseme, expression, comparative analysis, alternative, semantic association.

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается использование альтернативных выражений в узбекско-каракалпакской переводческой работе.

**Ключевые слова:** фразеологизм, фразема, выражение, сравнительный анализ, альтернативный вариант, семантическая ассоция.

Xalq donishmandligi va zakosining ixcham, ta’sirchan va obrazli namunalari, bu albatta, maqol va iboralardir. Mazkur til birliklarini qiyoslab o‘rganish orqali har bir tilga xos yangi qirralarni anglash mumkin.

Qardosh tillar frazemalarida bir xil ma’noni anglatib, lekin leksik tarkibi boshqa-boshqa so‘zlardan tuzilgan o‘ziga xos muqobillari mavjud bo‘ladi. Ularni tarjimada to‘g‘ri topib qo‘llash ko‘zlangan maqsadga erishish uchun ijobiy natija beradi. Shu nuqtai nazardan o‘zbek tilidagi frazemalarni tarjimada qoraqalpoq tilining o‘ziga xos frazemalari bilan ifodalanishini kuzatdik.

Ma’lumki, frazemalar badiiy asar qiymatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi va shoirlar frazemalarni o‘z asarida qahramon xarakteri va holatlarini

ochishda ishlatadilar. Voqea-hodisalarni tasvirlashda, o'quvchiga estetik zavq berishda ulardan mohirona foydalanadilar. Frazemalarni tarjima qilishda ikkala til vositalri, til xususiyatlari, muqobillaridan foydalaniladi. Bu esa o'z navbatida tarjimondan ikkala til, ya'ni asar tili va o'zga til, tarjima qilayotgan til qonun-qoidalari, xususiyatlrini yaxshi bilishini talab qiladi.

Bunday o'xshashliklar qarindosh yoki o'zaro yaqin tillar orasida bo'ladi.

R.Fayziyning "Hazrati inson" asarida "**changini chiqarmoq**" frazemasi uchraydi. Frazema "bir zumda yeb tamom qilmoq" ma'nosini anglatadi.<sup>1</sup> Yozuvchi bu frazemani asarda quyidagicha qo'llagan: Abduhafiz ham ovqat qo'yilsa, nimaligini so'rashtirib o'tirmay **changini chiqarib** yeguday och edilar. Tarjimon originaldan keltirgan parchani quyidagicha o'g'irgan: Abduhafiz ham tamaqtan otetug'inday bir na'rse bolsa **eki jalmap bir jutatug'in halda edi**.

**Changini chiqarmoq** frazemasi qoraqalpoqcha **eki jalmap bir jutiw** muqobili bilan to'g'ri aks ettirilgan. Iboralar ikkala tilda har xil obraz asosiga qurilgan bo'lsa-da, semantik umumiylikka ega. Shu nuqtai nazardan, tarjima jarayonida ulardan foydalanish kutilgan natijani beradi. Demak, shularni hisobga olsak, bu frazemalarni muqobil frazemalar desak bo'ladi.

O'zbek tilida "yaxshilik qilaman degan holda yomonlik qilib qo'yimoq" ma'nosida **qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq** frazemasi qo'llaniladi.<sup>2</sup> Aslida bu frazema matnda har doim shunday shaklda qo'llaniladi. Biroq, yozuvchi bu frazemani asarda bir qisminigina qo'llagan: Tag'in **qosh qo'yaman deb...**

Tarjimon ham tarjimada frazemani originaldagi kabi bir qismini qo'llagan: Tag'o da **boyayman deb...** . Qiyoslash shuni ko'rsatadiki, bu frazema shaklan tafovut qilsada, mazmunan bir xillikka ega. Demak, o'zbekchadagi frazema qoraqalpoqcha tarjimada to'liq o'z aksini topgan.

Aynan bir xil ma'noni ifodalaydigan frazemalar shakli aynan muvofiq kelsada, birikmaning asosini tashkil etuvchi so'zlar boshqacha bo'ladi yoki bir-biriga yaqin bo'ladi. Demak, ularni birining o'rnida ikkinchisini qo'llash yoki tarjimada berish mumkinligi tug'iladi. Chunki, bunday frazemalar bir-birini o'rnini bosa oladigan muqobillardir.

Yozuvchi asarida qo'llangan frazemalarning qoraqalpoqcha tarjimasida ham qoraqalpoq tilining o'ziga xos frazemalari ko'plab uchraydi. Masalan, Xayrlashib, eshigiga kirarkan, "**Haliyam dunyoni suv olsa to'pig'iga chiqmaydi-ya...** man nimani gapirdimu, u nimalrni o'ylavotti", deya g'ijinib qo'ydi. Bu frazema o'zbek tilida o'taketgan beg'am, o'ta ketgan beparvo ma'nosini anglatadi.<sup>3</sup> Tarjimon

<sup>1</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. 290-bet

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. 353-bet

<sup>3</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. 146-bet

o‘zbekcha frazemani qoraqalpoqcha muqobili bilan berib, ma’nosini juda to‘g‘ri yoritgan: Xoshlasip esigine kirip baratirip, “**dunyani suw alsa, uyrekke bir pul**”, - dep oyladi, men ne deymen g‘obizim ne deydi?!

Tarjimon bu frazemaning birinchi qismini ayni tarjima qilgan bo‘lsa-da, ikkinchi qismini qoraqalpoq tilining o‘ziga xos frazemasini bilan bergan va tarjimada asl matndan anglashilgan g‘oya, mazmun to‘la ifodasini topgan.

O‘zbek tilida yurak so‘zi bilan tuzilgan **yuragi kuydi** frazemasini kuchli darajada chanqamoq ma’nosida ishlatiladi. Asarda frazema shunday berilgan: Ertalabdan **yuragi kuygan** kim bo‘ldi ekan, degan xayol bilan zimdan ovoz kelgan tomonga qaradi-yu, taniyolmadi. Asardan keltirilgan matndagi frazema qoraqalpoqchaga **ishi qizip** ju‘rgen kim, dep yaxna shay sorag‘an ta‘repke qarap edi, taniy almadi. Tarjimada matn mazmuniga muvofiq keladiganini tanlab o‘g‘irish tarjimon uchun muhimdir. Matndan ham seziladiki, o‘zbekchadagi frazema anglatgan ma’no qoraqalpoqcha muqobili bilan juda yaxshi tarjima qilingan

O‘zbek tilida yana **podadan oldin chang chiqarmoq** frazemasini ishlatiladi. Frazema ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan ilgari gapirib yurmoq ma’nosini anglatadi:<sup>1</sup> **Podadan oldin chang ko‘tarish** yaramaydi. Mantdan ko‘rinadiki, frazemalar sabrsizlik, hovliqmalik yaxshilikka olib kelmasligi ma’nosini anglatadi. **Podadan oldin chang chiqarmoq** frazemasini tarjimon qoraqalpoq tiliga **toydan burin nag‘ara shaliw** muqobili bilan o‘g‘irgan. Bu frazema o‘zbek tilining frazeologik lug‘atida **podadan oldin chang chiqarmoq** frazemasining sinonimi sifatida qayd etilgan.<sup>2</sup>

Tarjimada: **toydan burin nag‘ara shaliwdin**’ ne keregi bar. Qoraqalpoqchada ham frazmadan anglashilgan ma’no to‘la va yorqin aks etgan

Quyidagi matnda **yostig‘ini quritmoq** frazemasini ta‘sirchanlikni, hissiy-bo‘yoqdorlikni oshirish maqsadida obrazli til vositasi sifatida qo‘llangan: Qanchadan qanchaning yostig‘ini quritvotti. **Yostig‘ini quritmoq** frazemasini anglatgan ma’noni matn mazmunidan kelib chiqib, shunday deyish mumkin: Butun oilasi bilan qirib yubormoq. Ushbu matn qoraqalpoq tiliga quyidagicha tarjima qilingan: Qanshadan-qansha shan‘araqtin’ tu‘tini oshti. **Shan‘araqtin’ tu‘tini oshiw** frazemasini qoraqalpoq tilida o‘zbek tilidagi frazema ma’nosida qo‘llaniladi. Ko‘rinadiki, frazemalar ikki tilda shaklan farq qilsa-da, mazmunan muvofiq keladi. Demak, o‘zbekcha **yostig‘ini quritmoq** va qoraqalpoqcha **shan‘araqtin’ tu‘tini oshiw** frazemalari o‘zaro muqobil.

**Mum tishlamoq** frazemasini o‘zbek tilida mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnashmaslik ma’nosida ishlatiladi.<sup>3</sup> Adib jimlik holatini asarda frazema bilan obrazli

<sup>1</sup>Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. 223-bet

<sup>2</sup>Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. 272-bet

<sup>3</sup>Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. 176-bet

qilib bergan: Aytganingizday **mum tishlab** oldilar-a. Tarjimon uni qoraqalpoq tiliga quyidagicha o'g'irgan: Aytqanin'izday **awzina qum quyildi** bunin'.

O'zbekcha matnda frazema ma'nosini tarjimon aniq tushunib, uni qoraqalpoqchaga juda to'g'ri o'g'irgan. **Awzina qum quyiw** frazemasini qoraqalpoq tilining frazeologik lug'atida gapirmaslik, indamaslik ma'nosida qayd etilgan.<sup>1</sup> O'zbek tilida bu frazema **og'ziga talqon solmoq** shaklida ham ishlatiladi: "Majlis boshlanguncha bir oz kulishib o'tiraylik. Og'izlaringa **"talqon" solib olmanglar**",- dedi Sotvoldi.<sup>2</sup>

Bu matni ham tarjimon to'g'ri anglab, qoraqalpoqchaga juda to'g'ri tarjima qilgan. O'zbek tilidagi frazemadan ko'zlangan maqsad tarjimada ham aniq ifodalangan.

Demak, yuqoridagi misollar tahliliga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, tarjima jarayonida frazemalarni o'girilayotgan tildagi muqobillari bilan ifodalash yozuvchining frazeologik mahoratini, asar g'oyaviy mazmunini to'la yoritish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Абдуллаев Ш. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида).НДА. -Тошкент. 2006.
2. Абдурахимов М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь, - Тошкент: Ўқитувчи. 1976.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент. 1978.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Тошкент. 1992.
5. Садыкова М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь,-Т., 1989.
6. Содикова М. Краткий узбекско-русский словарь устойчивых выражений. қисқача русча-ўзбекча барқарор иборалар луғати.-Т., 1994.-248 б.
7. Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилинің қысқаша фразеологиялық сөзлігі. –Нукус. 1985.
8. Қодиров П. Юлдузли тунлар. – Тошкент: Шарқ. 2012.
9. Қодиров П. Жулдызлы түнлер. –Нөкис: Қарақалпақстан. 2012.
10. Файзий, Р. Ҳазрати инсон. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1978.
11. Файзий, Р. Ҳазирети инсан. –Нөкис: Қарақалпақстан. 1983.

<sup>1</sup> Eshbaev J. Qaraqalpaq tilinin' qisqasha frazeologiyaliq sozligi. 47-bet

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. 210-bet